

9- Laboratoriya: Video ishlanmalar yaratish (Camtasia Studio, ISpring Cam Pro,

Capture, Bandicam)

Ishdan maqsad: Video ishlanmalar yaratish (Camtasia Studio, ISpring Cam Pro, Capture, Bandicam)ni o'rgatish.

Ishning nazariy qismi.

Xozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida doimiy ravishda multimediadan foydalanish ehtiyoji mavjud. Multimedia vositalari zamonaviy axborotkommunikatsion texnologiyalarining ajralmas qismi bo'lib, hayotimizning bir bo'lagiga aylangan. Multimedia texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanish ta'lif sifatini hamda ta'lif oluvchining o'zashtirish samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.


Camtasia Studio dasturi – bu kompyuter monitori ekranidagi tasvirlarni yozib olish imkonini beruvchi juda ham qulay kuchli dastur hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida biz ekrandagi jarayonlari oson tasvirga olishimiz, veb-kameralar orqali videoga olishimiz, PowerPoint taqdimotlarini, hamda audio yozuvlarni yaratishimiz mumkin. Dastur video ni tahrirlash imkonini beradi: turli effektlar berish, to'g'rilash, ravshanlik, ularning o'lchamlarini almashtirish, kerakli formatlarda saqlash va boshqalar. Camtasia Studio – video darsliklar, taqdimotlar va boshqa shunga o'xhash kuzatuvchilarga namoyish etiladigan materiallar yaratish uchun mo'ljallangan. Camtasia Studio dasturida monitor ekranidagilarni video tasvirga olishdan tashqari video ni tahrirlash imkoniyati ham mavjud. Camtasia Studio dasturidan foydalanib kompyuter monitorida yuz berayogan barcha jarayonlarni osonlik bilan yozib borish mumkin. Monitor ekranidagi butun sohani yoki uning alohida ajratilgan sohasini yozib olish mumkin, shundan so'ng video va audioning turli effektlarini berishimiz mumkin bo'ladi. Monitor ekranida kuzatilayotgan jarayonlarni yozib olish uchun yetarlicha yuqori unumidorlikka ega bo'lgan kompyuter tanlansa ish unumidorligi ortadi albatta. Camtasia Studio dasturining yana bir afzalligi shundaki, u o'zining shaxsiy TechSmit Screen Capture Codec kodekiga ega bo'lib, tasvirni kodlashtirishda yaxshi natijalarni beradi. Uning algoritmi tizimga bo'lgan ortiqcha yuklanishlarni minimallashtiradi, shuning uchun ushbu dasturdan unumidorligi past bo'lgan kompyuterlarda ham foydalanish mumkin.

Dasturning asosiy imkoniyatlari:

1. Monitor ekranidagi va veb-kameralar orqali kuzatilayotgan jarayonlarni, mikrofonlarni ovozni sifatli yozib olish.
2. Videolavhalarga turli xil vizual effektlar berish.
3. Videoyo'laklarni kesib olish, birlashtirish, o'chirish va qo'shish.
4. Audio yozuvlar qo'yish va tahrirlash.
5. Videoni bizga qulay bo'lgan formatlarda saqlash SWF, FLV, AVI, MOV, WMV, PPT, GIF, RM, CAMV.

Video tasvirni ushlab olish funksiyasini bajarishga mo‘ljallangan dasturlar soni kun sayin ortiq bormoqda. Bu esa Internetda video-kurslar va video-darslarning ko‘payishi va ommalashishi bilan bog‘liq. Ammo ushbu dasturlarning barchasi ham bizga kerakli natijani bera olmaydi, Camtasia Studio dasturi esa boshqalardan video tasvirni sifatli ushlab olishi bilan farqlanadi.

Dastur ish stolida sodir bo‘layotgan barcha holatlarni yozib oladi, shu jumladan kursor harakatini ham



Dastur interfeysi 1. Ish stoli; 2. Boshqaruv paneli; 3. Vaqt shkalasi; 4. Namoyish qiluvchi soha; Camtasia Studio dasturida to‘rtta utilitalar qamrab olingan: Camtasia Recorder, Camtasia Theater, Camtasia Player, Camtasia MenuMaker. Camtasia Studio dasturida yaratilgan lavhalar YouTube tipidagi saytlarda, iPhone apparatlarida, shuningdek odatdagи shaxsiy kompyuterlarda videoni ko‘rishga mo‘ljallangan har qanday dasturlarda a’lo darajada ishlaydi va muayyan dasturiy muhitda ishlashni o‘rgatuvchi media fayllarni Internetda ko‘plab uchratishimiz mumkin. Shu bilan birga dastur tasvir sifatini hech qanday yo‘qotishlarsiz saqlash va minimal hajmda videoni saqlash imkonini beradi

EAT resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta’minotlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi [<http://www.ispringsolutions.com>]. Odatda, taqdimotni o‘tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta’minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo‘lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o‘z navbatida, masofali ta’lim turining paydo bo‘lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o‘zida onlayn ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo‘lishi kerak.

Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring Free, iSpring PRO va iSpring Presenter kabi variantlarga ega

[<http://www.ispringsolutions.com>]. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko‘ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flashtaqdimotlarni yaratishga, balki ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so‘rovlар, elektron testlarni ham kiritgan holda o‘zaro interaktiv bog‘lanish imkoniyatini ham beradi. **iSpring Cam Pro** dasturi quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko‘ra olish, taqdimotga

«himoya belgi»si qo‘yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;

- video qo‘shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o‘qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o‘rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- masofaviy o‘qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos

keluvchi kurslarini yaratish;

- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
- videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;
- YouTube’ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.




iSpring dasturining interfeysi

FastStone Capture - bu kuchli, yengil, ammo to'liq xususiyatga ega ekranni ushslash vositasi va ekran video yozuvchisi. Bu osongina ekrandagi narsalarni, shu jumladan derazalarni, ob'yektlarni, menyularni, to'liq ekranli, to'rtburchaklar / erkin / sobit hududlarni osongina yozib olish va izohlash, shuningdek oynalarni / vebsahifalarni aylantirish imkonini beradi. Shuningdek, u ekranning barcha harakatlarini, shu jumladan ekrandagi o'zgarishlarni, mikrofondagi nutqni, sichqonchani harakatini va yuqori bosimli videofayllarga bosishni qayd etish imkonini beradi. Yozuvlarni muharrirga, faylga, clipboardga, printerga, elektron pochtaga, Word / PowerPoint hujjatiga yuborishni yoki veb-sayingizga yuklashni tanlashingiz mumkin. Tahrirlash vositalariga izohlar (matnlar, yo'naltirilgan chiziqlar, ta'kidlashlar), o'lchamlarini o'zgartirish, qirqish, aniqlashtirish, belgilash, chekka effektlarni qo'llash va boshqalar kiradi. Boshqa funktsiyalarga rasmlarni skanerlash, global tezkor tugmalar, avtomatik nomlarni yaratish, tashqi muharrirlarni qo'llab-quvvatlash, rang tanlagich, ekran lupasi, FastStone Capture tasvirlarni BMP, GIF, JPEG, PCX, PNG, TGA, TIFF va PDF formatlarida saqlaydi. O'rnatilgan ekran yozuvchisi videolarni WMV (Windows Media Video) formatida saqlaydi.

Bandicam ommaviy va mashhur dastur, ishchi stolidan uzun videoroliklarni tashkil qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, hususan - video darslarni va kompyuter o'yinini yozish uchun qo'llanilishi mumkin. Ta'limda esa bu dasturni video yoki audio dars tayyorlash uchun, rasm-screenshot ko'rinishidagi o'quv materiallarni yaratishda qo'llaniladi. Dastur foydalanuvchi ekranini to'liq qamrab olish uchun mo'ljallangan. Bandicam dasturining to'g'ri sozlovini tanlab olinadi. Ishning boshida video, ovoz va tasvir sifati ustida ishlashni talab etiladi. Sozlov juda oddiy va ko'p vaqt talab qilmaydi. Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu dasturni internetdan kompyuterga yuklash, unda ishlash talabalarga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ishning bajarilish tartibi:

Birinchi bo`lib biz dasturni ishga tushirib olishimiz kerak bo`ladi. Buning uchun biz test tayyolashimiz uchun Ishchi stoldan **Camtasia Studio 8**



Papkasini ochibundab

tanlab olamiz va dasturga kiramiz.


Undan so`ng esa animatsiya yaratishga tayyorlanamiz.

Undan so`ng esa quyidagi oyna ochiladi:
Dasturning ishga tushush jarayonini ko'rishimiz mumkin.

Endi ushbu oynadan ishchi oynani ko`rib chiqamiz.





1. Camtasia Studio 8 dasturining menyulari.



2. Uskunalar paneli.



Import media - Import media bo'limidan video chaqirishimiz mumkin.





Otkryt tugmasi bosiladi.



Botir_Qodirov...



Video chaqirib oldik dasturga



Qaychi yordamida videoni o'chirib tashlaydi.




razdelet videoni kesib tashlaydi.



Saqlab qo'yish uchun kerakli joyga olib borib nom berib saqlaymiz.

Ekranni videoga oladigan dasturlardan birini tanlaymiz.



Bandicam dasturi xotiradan kamroq joy egallaydi.



FsCapture dasturi ham ekranni videoga oladi.

Undan so'ng esa qilgan ishimizni saqlab, ishimizni yakunlaymiz.

Topshiriqni bajarish uchun vazifalar:

Camtasia Studio dasturida quyidagi vazifalarni bajaring:

1. Monitor ekranidagi va web-kameradagi tasvirlarni hamda mikrofonidagi ovozlarni yozib oling;
2. Turli vizual effektlar joylashtiring;
3. Ovozli fayllarni tahrirlang;
4. Tayyorlanayotgan loyihani oldindan eshitish yoki ko'rish imkoniyatini hosil qiling;
5. Videoni masshtablash rejimidan foydalaning;
6. Videofayllarni qirqish, bo'laklash, qo'shish va o'chirish imkoniyatlaridan foydalaning;
7. Tayyor videofaylni turli videoformatlarda saqlang;
8. Videorolikni namoyish qilish uchun universal asboblardan foydalaning;
9. Oddiy va tushunarli interfeys hosil qiling;
10. Ta'lim muasassamizning videoroligini hosil qiling

Nazorat savollari.

1. Camtasia studio dastur va uning imkoniyatlari.
2. Camtasia Studio dasturining boshqaruv paneli.
3. Camtasia studio dastur vaqt shkalasi.
4. ISpring dasturi vazifalari va turlari
5. Ispring Pro Cam dasturi imkoniyatlari
6. Bandicam dasturida fayllarni saqlash formatlari
7. FastCapture dasturi ekranni yozish funksiyalari